

TIL O'RGANISH JARAYONIDA MOTIVATSIYANING O'RNI VA UNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Abduqodirova Ziyoda Jamol qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

abduqodirovaziyoda007@gmail.com

Annotatsiya: *Motivatsiya inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, u insonning faoliyat jarayonlariga ta'sir etishi mumkin. Motivatsiya - til o'rganishda e'tiborli jihatlardan biri hisoblanib, muvaffaqiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ichki va tashqi motivatsiya turlari o'quvchining intilish va o'qishga bo'lgan ta'sirining natijalari misollar bilan ko'rsatib berilgan. Shuningdek, motivatsiyani oshirish va uning ta'lim jarayonida qo'llanishi ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, til o'rganish, samaradorlik, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, barqarorlik, muvaffaqiyat, ta'lim jarayoni, rivojlanish, interaktiv usullar.*

Аннотация: *Мотивация играет важную роль в жизни человека и может оказывать влияние на его деятельность. Мотивация является одним из ключевых аспектов изучения языка и существенно влияет на успех. В данной статье на примерах показано, как внутренняя и внешняя мотивация влияют на стремления учащегося и его вовлечённость в учебный процесс. Также рассматриваются способы повышения мотивации и её применение в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *мотивация, изучение языка, эффективность, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, настойчивость, успех, образовательный процесс, развитие, интерактивные методы.*

Annotation: *Motivation plays a significant role in human life and can influence a person's activities. Motivation is one of the key aspects of language learning and has a great impact on success. This article illustrates, with examples, the effects of intrinsic and extrinsic motivation on a learner's aspirations and engagement in learning. Furthermore, it examines ways to enhance motivation and its application in the educational process.*

Keywords: *motivation, language learning, efficiency, intrinsic motivation, extrinsic motivation, persistence, success, educational process, development, interactive methods.*

KIRISH

Hozirgi zamonaviy dunyoda til o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Til o'rganish orqali turli madaniyatlar bilan tanishadi, chet el manbalaridan bilim olish va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat nafaqat shaxsiy, balki kasbiy rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu imkoniyatlarda foydalanish mashaqqatli mehnat va uzoq vaqtni talab qiladi. Bunda insonning turli psixik holatlari organish jarayonida o'zgaradi yoki o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va, albatta, motivatsiya. Motivatsiya- umumiy psixologik jarayon - motivlardan kelib chiqadigan faoliyatning boshqarilishi, harakatni boshlash, davom ettirish va maqsadga yo'naltirish jarayoni yoki kuchi. Masalan, motivga asoslanib o'qishga kirish, davom etish va muvaffaqiyatga intilish. Har qanday faoliyatda, jumladan, til o'rganishda, motivatsiya talabning qiziqishi, intilishi va qat'iyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida motivatsiya talabaga yangi so'zlar va grammatikani tezroq o'zlashtirish, mustaqil mashq qilish, muloqotda qatnashish va qiyinchiliklardan qo'rqmaslik imkonini beradi. Motivatsiya darajasi baland bo'lgan talaba, odatda, o'qishga ko'proq vaqt ajratadi va natijadorligi yuqori bo'ladi. Masalan, Gardner (1985) tadqiqotida til o'rganishda yuqori ichki motivatsiyaga ega talabalar tezroq va samaraliroq o'rganishlari aniqlangan. Shu bilan birga, Dornyei (2001) ishida motivatsiya darajasi past bo'lgan talabalarda til o'rganish jarayoni sust kechishi kuzatilgan.

MOTIVATSIYA NIMA VA UNING TURLARI

"Motivatsiya" so'zi lotin tilidagi "movere" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "harakatga keltirmoq", "siljitmoq", "undamoq" degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu so'z fransuz va ingliz tilida "motivation" shaklida qo'llanila boshlagan. Ilmiy atama sifatida "motivatsiya" psixologiya fanida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida keng ishlatila boshlagan. O'sha davrda inson xulq-atvorining sabablarini o'rganish jarayonida motivatsiya tushunchasi asosiy ilmiy terminlardan biriga aylangan. Motivatsiya nazariyasini rivojlantirishda ko'plab psixolog va pedagog olimlar katta hissa qo'shgan: Abraham Maslow, Alfred Adler, Robert Gardner.

Abraham Maslow (1908–1970) — amerikalik psixolog, motivatsiya va inson ehtiyojlari nazariyasining asoschisi. Maslowga ko'ra, insonning xatti-harakati uning turli darajadagi ehtiyojlarini qondirishga intilishi bilan bog'liq. Maslowning fikricha, pastki darajadagi ehtiyojlar qondirilmadan, yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondirish qiyin. Shu nuqtai nazardan motivatsiya — bu ehtiyojlarni qondirishga intilishdir. Til o'rganishda motivatsiya talabning ehtiyojlariga bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlari – barqaror o'qish muhiti, qulay sharoit;
2. Tegishlilik va muhabbat ehtiyojlar – do'stlar bilan muloqot, guruh ishlari;
3. Hurmat va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyojlari – yaxshi natija olish, orzularga erishish.

Maslowning nazariyasi motivatsiyani talabning ehtiyojlari bilan bog'lab tushuntirishga yordam beradi.

Alfred Adler (1870–1937) — avstriyalik mashhur psixolog va psixiatrlardan biri bo'lib, individual psixologiya maktabining asoschisi hisoblanadi. Adlarning fikricha, insonning asosiy motivatsiyasi — mukammallikka intilish va o'zini rivojlantirish istagidir. U insonlar har doim kamchiliklarini yengib, yaxshiroq bo'lishga harakat qiladi deb hisoblagan. Masalan, til o'rganishda talaba o'zini rivojlantirish, boshqalardan ortda qolmaslik yoki yaxshi kelajak qurish uchun harakat qiladi. Bu Adler aytgan mukammallikka intilish motivatsiyasiga misol bo'ladi.

Til o'rganish yoki boshqa faoliyatlarda motivatsiya asosan ikki asosiy turga bo'linadi: 1. Ichki motivatsiya (Intrinsic Motivation); 2. Tashqi motivatsiya (Extrinsic Motivation).

Ichki motivatsiya — bu shaxsning faoliyatni o'z xohishi, qiziqishi va shaxsiy rivojlanish istagi tufayli bajarishi. Ya'ni, inson harakatlari uning ichki qoniqishidan kelib chiqadi, tashqi mukofot yoki bosim emas. Til o'rganish jarayonida ichki motivatsiya talabning qiziqishi va intilishidan kelib chiqib, samarali o'rganishni ta'minlaydi. Masalan, ingliz tilini filmlar va qo'shiqlar orqali o'rganish, chunki bu talaba uchun zavqlidir yoki kitoblarni asl tilida o'qish maqsadida chet tilini o'rganish. Shuningdek, o'z bilimni oshirish va yangi so'zlarni yodlashdan rohat olish. Uning bir qancha xususiyatlari mavjud:

-Shaxsiy qiziqish asosida faoliyatni o'zlashtirish. Bunda talaba yangi so'z va grammatika qoidalarini o'rganishdan zavq oladi.

-Barqaror va uzoq muddatli faoliyat, ya'ni ichki motivatsiya qiyinchiliklar oldida to'xtamasdan, faoliyatni davom ettirishga yordam beradi.

-Yuksak samaradorlikka olib keladi. Misol uchun tadqiqotlar ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega talabalar bilimlarni tezroq va mustahkamroq o'zlashtiradi (Oxford, 1990).

-Ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Masalan, talaba mustaqil ishlash va ijodiy yechimlar topishga harakat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, ichki motivatsiyani shakllantirish uzoq muddatli va chuqur natijalarga olib keladi. Buning uchun bir qancha omillarni hisobga olish kerak:

- Qiziqish uyg'otish: biron faoliyatga o'z ixtiyorimiz bilan qiziqish bildirishimiz kerak, natijada o'sha jarayonning o'zi insonga zavq beradi.

- Maqsadni his qilish: faoliyatni boshlashdan oldin muayyan harakat bosqichlari amalga oshiriladi. Ulardan birinchisi - harakat maqsadlarini belgilash va maqsad vositalarini aniqlashtirishdir. Bu jarayonni amalga oshirishda iroda kabi psixologik jarayon yordam beradi. Iroda - bu shaxsning oldindan maqsad qilib qo'yilgan va vositalarini belgilagan holda ongli ravishda zo'r berish natijasida paydo bo'ladi. Iroda va maqsad uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu orqali shaxs o'z jaoliyatining mazmuni tushunadi va undan ma'no topadi. Bu esa samaradorlikni ta'minlab beradi.

- O'z ustida ishlash: faoliyatni amalga oshirish jarayonida barqaror bo'lish, natijaga erishish uchun diqqatning kuchi va barqarorligini saqlashdir.

Xulosa qilib aytganda, ichki motivatsiya faoliyatga qiziqqani uchun uni bajarishdir. Til o'rganish faoliyatida ichki motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U orqali o'z qiziqishlari asosida harakat qilib, barqarorlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Tashqi motivatsiya - bu insonning faoliyatiga tashqi omillar sabab amalga oshirishga undaydigan motivatsiya turidir. Bu omillar, odatda, baho, diplom, sertifikat, moddiy boylik kabi tashqi rag'batlar bilan bog'liq. Masalan, talaba ingliz tilini yaxshi maoshli ish imkoniyatiga ega bo'lish uchun o'rganishi. Bir tomondan, tashqi motivatsiya shaxsni maqsad sari intilishiga yordam beradi, lekin qisqa muddat davom etishi yoki samarasiz ekanligi salbiy oqibatlarga olib keladi. Uning asosiy xususiyatlari:

- Tashqi rag'batga bog'liq: harakatlarni mukofot yoki jazodan qochish uchun amalga oshiradi, kutilgan natija bermasa, ishtiyoqi tez so'nadi;
- Tez natija berishi: talaba motivatsiya natijasida qisqa muddatda rag'batga erishishga harakat qiladi, mavjud tashqi va ichki imkoniyatlaridan foydalanadi;
- Talabaniq maqsad sari intilishini oshiradi: rag'bat va mukofot maqsadni aniq qiladi, to'g'ri maqsad va vositalarini tanlashga yordam beradi. Misol uchun, IELTS yoki TOEFL imtihonida yuqori ball olish maqsadida ingliz tilini o'rganish. Shuningdek, stipendiya yoki grant yutish uchun til bo'yicha bilimlarni oshirish. Ikkala holatda ham reja qilingan maqsadning mukofoti aniq. Ko'plab olimlar ushbu psixik jarayon ustida tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, Gardner (1985) tashqi motivatsiya talabalarning qisqa muddatli natijalarini oshiradi, lekin uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun ichki motivatsiya bilan birgalikda bo'lishi zarur degan fikrni ilgari surgan. Deci va Ryan (1985) tadqiqotlarida ko'rsatganidek, faqat tashqi rag'batga tayanib o'rganish ichki qiziqishni kamaytirishi mumkin.

Shaxs faoliyati davomida tashqi motivatsiya muhim rol o'ynasa-da, uning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlari:

1. Maqsadni aniq belgilashga yordam beradi. Ya'ni tashqi motivatsiya talabaniq aniq natijaga erishishiga turtki bo'ladi. Masalan, sertifikat olish yoki ishga joylashish uchun til o'rganish.

2. Qisqa muddatli natijalarni tezlashtiradi. Masalan, imtihon, baho yoki stipendiya kabi rag'batlar talabaniq tezroq harakat qilishiga sabab bo'ladi.

3. Intizom va mas'uliyatni oshiradi. Bunday holatda tashqi talablar va muddatlar o'quvchini rejali ishlashga undaydi.

4. Boshlang'ich bosqichda foydali hisoblanadi: til o'rganishni yangi boshlagan talaba uchun tashqi motivatsiya dastlabki qiziqishni shakllantirishga yordam beradi.

5. Natijani o'lchash imkonini beradi: sertifikat, baho yoki test natijalari o'rganish darajasini baholashga yordam beradi.

Salbiy tomonlari:

1. Tashqi motivatsiya barqaror emas. Agar mukofot yoki rag'bat yo'qolsa, motivatsiya ham pasayishi mumkin.
2. Ichki qiziqishni kamaytirishi mumkin. Tadqiqotlar (Edward Deci va Richard Ryan) ko'rsatadiki, faqat tashqi mukofotga tayanish ichki motivatsiyani susaytiradi.
3. Stress va bosimni oshiradi, ya'ni faqat baho yoki natijaga qaratilgan o'rganish talabani ruhiy bosimini kuchaytiradi.
4. Yuzaki bilimga olib kelishi mumkin: talaba faqat imtihon uchun o'rganib, bilimni tez unutishi mumkin.
5. Ijodkorlikni kamaytiradi: faqat natijaga qaratilgan o'rganish ijodiy fikrlashni cheklaydi.

Tashqi motivatsiya til o'rganish jarayonida muhim o'rin tutadi, ayniqsa boshlang'ich bosqichda va aniq maqsadga erishishda foydalidir. Biroq uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun ichki motivatsiya bilan uyg'unlikda qo'llanilishi zarur. Eng samarali natija talabani o'z qiziqishi va tashqi rag'batlar birgalikda ishlaganda yuzaga keladi.

TIL O'RGANISH JARAYONIDA MOTIVATSIYA AHAMIYATI

Til o'rganish murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, unda motivatsiya asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Motivatsiya talabani o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, bilimni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi va o'quv samaradorligini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda tilni egallash tezligi ham yuqori bo'ladi. Motivatsiya quyidagilarni amalga oshiradi:

1. O'rganishga qiziqishni oshiradi.

Motivatsiya mavjud bo'lsa, talaba tilni faqat darsda emas, balki kundalik hayotida ham qo'llashga harakat qiladi. Masalan, ingliz tilini o'rganayotgan talaba ingliz tilidagi filmlar ko'radi, qo'shiqlar tinglaydi, chet ellik do'stlar bilan muloqot qiladi. Bu esa tabiiy til muhiti yaratib, o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

2. Barqarorlikni ta'minlaydi.

Til o'rganishda grammatika qoidalari, talaffuz, yangi so'zlar kabi qiyinchiliklar uchraydi. Kuchli motivatsiya talabani bu qiyinchiliklarni yengib o'tishiga yordam beradi. Ayniqsa ichki motivatsiya o'quvchining uzoq muddatli mehnatini qo'llab-quvvatlaydi.

3. O'quv samaradorligini oshiradi

Motivatsiyaga ega talabalar darslarga faol qatnashadi, uy vazifalarini o'z vaqtida bajaradi va mustaqil mashq qiladi. Tadqiqotlarda motivatsiyali talabalar bilimni tezroq o'zlashtirishi va uzoq muddat eslab qolishi aniqlangan.

4. Mustaqil o'rganishni rivojlantiradi

Motivatsiya talabani o'z ustida ishlash odatini shakllantiradi. Bugungi kunda mobil ilovalar, onlayn kurslar va video darslar orqali mustaqil til o'rganish imkoniyati kengaygan. Onlayn platformalar o'quvchilarni interaktiv topshiriqlar orqali faol ishtirok

etishga undaydi. Masalan, har kuni 10 ta yangi soʻz yodlash yoki 15 daqiqa tinglab tushunish mashqlari qilish oʻrganish natijalarini sezilarli oshiradi.

Kichik statistik misol: baʼzi taʼlim tadqiqotlarida motivatsiyasi yuqori talabalar test natijalarida

oʻrtacha 20–30% yuqori koʻrsatkich qayd etgani aniqlangan. Bu motivatsiyaning oʻquv samaradorligiga kuchli taʼsirini koʻrsatadi.

Til oʻrganish jarayonida talabaning intilishi va qatʼiyati muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir. Intilish — bu talabaning maqsad sari harakat qilish istagi boʻlsa, qatʼiyat esa qiyinchiliklarga qaramay oʻrganishni davom ettirish qobiliyatidir. Kuchli motivatsiyaga ega talaba oʻz oldiga aniq maqsad qoʻyadi va unga erishish uchun muntazam mashq qiladi. Til oʻrganish davomida talaffuzdagi xatolar, yangi grammatika qoidalari yoki soʻz boyligining kamligi kabi muammolar uchrashi tabiiy. Qatʼiyatli talaba esa bu qiyinchiliklarni vaqtinchalik holat deb bilib, oʻrganishni toʻxtatmaydi. Tadqiqotlarda Robert Gardner til oʻrganishda muvaffaqiyat koʻp jihatdan talabaning motivatsiyasi va qatʼiyatiga bogʻliq ekanini taʼkidlagan.

Masalan, har kuni 10–15 daqiqa yangi soʻzlarni yodlash, ingliz tilidagi videolarni tinglash yoki qisqa suhbatlar qilish talabaning bilimni asta-sekin oshiradi. Bunday muntazam harakatlar intilish va qatʼiyat natijasidir.

Til oʻrganish jarayonida motivatsiya oʻquv natijadorligi va bilim hosil qilish darajasiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Motivatsiyaga ega talaba darslarda faol qatnashadi, mustaqil mashqlar bajaradi va bilimni amaliyotda qoʻllashga intiladi. Bu esa bilimlarning chuqur va mustahkam oʻzlashtirilishiga olib keladi.

Motivatsiya yuqori boʻlgan oʻquvchilar yangi soʻz va grammatik qoidalarni tezroq oʻzlashtiradi, tinglab tushunish va gapirish koʻnikmalarini faol rivojlantiradi. Shuningdek, Edward Deci va Richard Ryan motivatsiya insonning oʻzini rivojlantirish istagini kuchaytirib, bilimlarni ongli va chuqur oʻzlashtirishga yordam berishini taʼkidlagan. Bunday talabalar bilimni faqat imtihon uchun emas, balki kundalik hayotda qoʻllash uchun oʻrganadilar. Masalan, motivatsiyali talaba ingliz tilidagi maqolalarni oʻqib, yangi soʻzlarni yozib boradi, suhbatlarda faol qatnashadi va xatolar ustida ishlaydi. Natijada uning soʻz boyligi kengayadi, nutq ravonlashadi va bilimlari uzoq muddat saqlanib qoladi.

MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI

Motivatsiya har bir faoliyat turi bilan uzviy bogʻliq va samarali natijaga ega boʻlish uchun uni oshirish zarur. Motivatsiyani oshirishning bir qancha usullari mavjud:

1. Aniq maqsad qoʻyish.

Til oʻrganishda motivatsiyani oshirishning eng samarali usullaridan biri aniq va real maqsadlar qoʻyishdir. Maqsad talabaning oʻrganish jarayoniga yoʻnaltiruvchi kuch boʻlib, unga qatʼiylik va intilishni beradi. Maqsad qoʻyishning afzalliklari: talabaning intilish va qatʼiyatini oshiradi, oʻrganish jarayonini muntazam va tizimli qiladi, natijalarni koʻrish va baholash imkonini beradi.

2. Kichik yutuqlarni nishonlash.

O'rganish jarayonida erishilgan har bir kichik yutuq motivatsiyani oshiradi.

Masalan:

- Yangi so'zlar ro'yxatini yodlash;
- Bir nechta gap tuza olish;
- Ingliz tilida qisqa matnlarni tushunish.

Bunday yutuqlarni nishonlash — o'zini rag'batlantirish yoki kichik mukofotlar orqali talabanning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

3. Kundalik mashqlar va film, qo'shiqlardan foydalanish.

Til o'rganishda kundalik mashqlar va multimedia manbalarini ishlatish samarali usullardan biridir:

- Kundalik mashqlar – so'z yodlash, grammatika topshiriqlari, tinglab tushunish mashqlari;
- Filmlar va qo'shiqlar – talaffuzni, eshitib tushunishni va madaniy kontekstni rivojlantiradi.

Bu usullar o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi, talabanning ichki motivatsiyasini rag'batlantiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi (Rebecca Oxford).

4. Do'stlar bilan inglizcha muloqot qilish.

Tilni amaliyotda qo'llash motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi. Do'stlar bilan inglizcha muloqot qilish quyidagi foydalarni beradi:

- Nutq va tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- Xatolardan xulosa chiqaradi;
- Ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yadi.

Masalan, haftada bir marta do'stlar bilan inglizcha suhbat klubi tashkil qilish talabanning muntazam mashq qilish odatini shakllantiradi va ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganish jarayonida motivatsiya va muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik juda kuchli. Kuchli motivatsiya talabanning intilishi, qat'iyligi va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, natijada bilim hosil qilish va tilni amaliyotda qo'llash samaradorligi oshadi. Talabanning ichki va tashqi motivatsiyasi uyg'un ishlaganda, ichki motivatsiya talabanning qiziqishi va o'zini rivojlantirish istagini rag'batlantiradi, bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Tashqi motivatsiya esa maqsad sari intilishni rag'batlantiradi, qisqa muddatli natijalarni tezroq ko'rishga yordam beradi.

Shunday qilib, motivatsiya kuchi orqali talaba til o'rganishdagi yutuqlarga erishadi, o'z maqsadlarini belgilaydi va ularga erishishda qat'iyat ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar (Deci & Ryan, 1985; Gardner, 1985; Dörnyei, 2005) shuni ko'rsatadiki, motivatsiya til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatning eng asosiy omili hisoblanadi.

Shaxsiy tajribam va izlanishlardan kelib chiqib ushbu tavsiyalarni havola qilaman:

1. Talabalar o‘z oldiga aniq va o‘lchab bo‘ladigan maqsadlar qo‘ysin.
2. Kichik yutuqlarni qayd etish va nishonlash orqali ichki motivatsiyani kuchaytirish.
3. Kundalik mashqlar, multimedia materiallar (film, qo‘shiqlar) va amaliy muloqotdan faol foydalanish.
4. Ichki va tashqi motivatsiyani uyg‘unlashtirish orqali til o‘rganish jarayonini samarali qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. New York: Plenum.
2. Oxford, R. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Boston: Heinle & Heinle.
3. Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. London: Edward Arnold.
4. Dörnyei, Z. (2005). *The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.
5. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation* (2nd ed.). Harlow: Pearson Education.
6. Locke, E. A., & Latham, G. P. (2002). Building a Practically Useful Theory of Goal Setting and Task Motivation: A 35-Year Odyssey. *American Psychologist*, 57(9), 705–717.
7. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370–396.
8. Carol Dweck (2006). *Mindset: The New Psychology of Success*. New York: Random House.
9. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova (2008). *Umumiy psixologiya*. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.
10. Abduqodirova Z.J (2026). Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali chet tillarini o‘rgatish tajribalari. *Новости образования: Исследование в XXI веке*, № 42 (100), Февраля 2026 г. Часть 1
11. <https://www.edutopia.org/>. Edutopia – Motivation in Learning
12. <https://www.researchgate.net/>. ResearchGate